

Tushgan testlar .

Anora Mahkamova jamoasi uchun

Tuzuvchi: Husniya Egamberdiyeva

O'qituvchi mavzuni bir necha qismlarga bo'ldi. Har bir o'quvchi o'ziga berilgan qismni o'rganib, keyin guruhdagi boshqalarga tushuntirdi. Natijada barcha o'quvchilar mavzuni to'liq o'zlashtirdi.

Bu qaysi metod?

- A) AJIL
- B) **Ajurli arra**
- C) Keys-stadi

D) Aqliy hujum

O'qituvchi o'quvchilarga biror loyiha ustida ishlashni topshirdi. Ular jamoa bo'lib ishladi, ijodiy yondashdi va yakunda tayyor mahsulot (loyiha) taqdim etdi.

Bu qaysi metod?

- A) **AJIL**
- B) Asalari galasi
- C) Keys-stadi
- D) Baliq skeleti

Sinfda o'zaro muloqotga kirishishga qiynaladigan, "yakkalangan" (izolyatsiyadagi) o'quvchi bilan ishlashda o'qituvchining eng samarali birinchi qadami qaysi?

- A) O'quvchini majburiy tarzda sinf faollari safiga qo'shish.
- B) Uni doimiy ravishda doskaga chiqarib, ko'pchilik oldida gapirtirish.

C) O'quvchi bilan individual suhbat orqali uning qiziqishlarini aniqlash va unga kichik, muvaffaqiyatli rol berish.

D) Ushbu o'quvchiga e'tibor bermaslik, vaqti kelib o'zi moslashib ketishini kutish.

Kimyo darsida o'qituvchi atom tuzilishini tushuntirish uchun simlar va turli rangdagi koptokchalardan foydalanib, elektronlarning yadro atrofida joylashishini yasab ko'rsatdi. O'quvchilar ushbu vositalar yordamida elektronlarning harakatini va atomning ichki tuzilishini aniq tasavvur qila boshladilar.

Mazkur jarayonda o'qituvchi qaysi o'qitish metodidan foydalangan?

A) Namoyish qilish (Demonstratsiya) metodi

B) Modellashtirish metodi

C) Loyihalash (Proyekt) metodi

D) Ilmiy kuzatish metodi

O'qituvchi dars davomida "Yaxshilik va yomonlik" mavzusini tushuntirar ekan, mavzuga doir qiziqarli hayotiy voqeani emotsional bo'yoqdorlik bilan so'zlab berdi. O'quvchilar voqeani diqqat bilan tingladilar va dars so'ngida o'qituvchi tomonidan berilgan xulosalarni qabul qildilar.

Ushbu vaziyatda axborot uzatish asosan o'qituvchidan o'quvchiga qarab bir tomonlama yo'naltirilgan bo'lsa, qaysi metod qo'llanilgan hisoblanadi?

A) Suhbat metodi

B) Hikoya metodi

C) Munozara metodi

D) Muammoli ta'lim metodi

O'qituvchi murakkab masalani sodda qismlarga bo'lib, kimyoviy reaksiyalar, formulalardan foydalangan holda oson usulda ishladi. Bunda qanday usuldan foydalangan .

A) Grafik

B) Algebraik

C) Geometrik

D) Arifmetik

Quyidagi maxsus pedagogika sohalari va ularning obykti hisoblangan nuqson turlari o'rtasidagi muvofiqlikni to'g'ri ko'rsating:

1. Surdopedagogika

2. Tiflopedagogika

3. Oligofrenopedagogika

4. Ortopedagogika

A) Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash

B) Tayanch-harakat a'zolarida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash

C) Eshitishda nuqsoni bor bolalar bilan ishlash

D) Ko'rishda nuqsoni (ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi) bo'lgan bolalar bilan ishlash

A) 1-C, 2-D, 3-A, 4-B

B) 1-D, 2-C, 3-A, 4-B

C) 1-C, 2-A, 3-D, 4-B

D) 1-B, 2-D, 3-A, 4-C

Pedagog kimyo fanidan A+ darajali sertifikatga ega va o'z fanini mukammal biladi. 7-sinf o'quvchilari uni juda hurmat qilishadi, biroq o'qituvchi dars jarayonini tizimli tashkil etishda, vaqtni to'g'ri taqsimlashda va o'quvchilar guruhini boshqarishda qiynaladi.

Ushbu pedagogda qaysi qobiliyatni rivojlantirishga ehtiyoj bor?

A) Akademik qobiliyat

B) Tashkiliy qobiliyat

C) Perseptiv qobiliyat

D) Didaktik qobiliyat

Dars jarayonida bir o'quvchi shovqin chiqarib, sinfdoshlarining diqqatini bo'lishga harakat qildi. O'qituvchi unga tanbeh bermadi, aksincha, o'quvchiga diqqat bilan (ma'noli) qarab turdi. O'qituvchining nigohini his qilgan o'quvchi darhol o'zini o'nglab oldi va darsni davom ettirdi.

Ushbu vaziyatda o'qituvchining qaysi pedagogik xususiyati namoyon bo'lmoqda?

A) Didaktik qobiliyati

B) Pedagogik takt (nazokat)

C) Akademik qobiliyati

D) Konstruktiv qobiliyati

Quyida keltirilgan fikrlar orasidan innovatsion ta'lim tizimiga xos bo'lgan kamchilik va to'siqlarni aniqlang va ularning sonini belgilang:

1. Darsning ilmiy mazmuni o'yin elementlari va texnik vositalar ("metod metod uchun") ortida qolib ketish xavfi mavjudligi.
2. O'quvchilarning passiv tinglovchiga aylanib qolishi va faqat tayyor ma'lumotni yodlashi.
3. Moddiy-texnik bazaga (internet, AKT, maxsus jihozlar) kuchli bog'liqlikning mavjudligi.
4. O'qituvchining darsga tayyorgarlik ko'rish uchun an'anaviy darsga nisbatan ko'proq vaqt va energiya sarflashi.
5. O'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatining bo'g'ilishi.
6. Metodni noto'g'ri tanlash natijasida darsning asosiy maqsadidan chetlashib ketish ehtimoli.

A) 3 ta

B) 4 ta

C) 5 ta

D) 2 ta

Kimyo o'qituvchisi "Metallar" mavzusini tushuntirishda asosiy formulalar va chizmalarga tayanib, mavzuni qismlarga bo'lib tushuntirdi. Biroq u metallarning kashf etilish tarixi, ularning tabiatda uchrashi va fundamental kimyoviy xossalari haqidagi nazariy ma'lumotlarni tushuntirmasdan, darhol amaliy mashqlar bajarishga o'tdi. Sinfda o'quvchilar mashqlarni namunaga qarab ishladilar, lekin uyga vazifa berilganda mavzuning mohiyatini tushunmaganliklari sababli mustaqil bajara olmadilar.

Ushbu vaziyatda o'qituvchi qaysi ta'lim tamoyilini buzgan?

A) Ta'limning ko'rgazmalilik tamoyilini

B) Nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi hamda tizimlilik va izchillik tamoyilini

C) Ta'limning tushunarlilik va yosh xususiyatlariga moslik tamoyilini

D) Vaqtdan oqilona foydalanish va darsni optimallashtirish tamoyilini

O'qituvchi o'quvchilarga ta'lim berish jarayonida ularning madaniy tafovutlari, jinsi, yoshi va individual-psixologik xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan holda dars faoliyatini rejalashtiradi va amalga oshiradi.

Ushbu jarayonda pedagog kasbiy standartning qaysi talabini bevosita bajargan hisoblanadi?

A) O'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalashni tashkil qilish

B) Bolalarning madaniy tafovutlari, jinsi, yoshi va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim faoliyatini tashkil qilish

C) Ta'lim oluvchilarning ijtimoiy-psixologik va fiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda sog'lom muhitni shakllantirish

D) O'quvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqib, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish

Moslashtiring.

1O'ZLASHTIRISHNI BAHOLASH VA QAYTA ALOQANI TAQDIM ETISH	A.O'quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o'quv dasturini moslashtirish
2. TA'LIM SAMARADORLIGINI TA'MINLASH	B. O'quvchilar bilimni baholash natijasida olingan ma'lumotlar asosida darsni tashkil etish va ta'lim berishdagi yondashuvlarining samaradorligini tahlil qilish
	C. O'quvchilar erishgan yutuqlarni natijalarini tahlil qilish

- A) 1a2b
- B) 1b2c
- C) 1c2b
- D) 1c2a

To'g'ri javob C

@ANORAMAI